

**AHMAD IBN UMAR IBN MUHAMMAD KHIVAQI AL-KHVARIZMI, WHO DID NOT SUBMIT TO GENGHIS**DOI: <https://doi.org/10.53885/edires.2021.55.83.084>*Abdullayeva Saodat Nurilloyevna,**assistant department of social sciences, Bukhara state medical institute,  
Bukhara, Uzbekistan*

**Annotation.** This article gives a brief account of the life of Ahmad ibn Umar ibn Mukhammad Khivaqi al-Khwarizmi, better known as Najmuddin Kubra, from his childhood to the end of his life. The article also contains important remarks about the nicknames given to Najmuddin Kubro, and his teachers who helped him grow into such a perfect person, and the students he was taught.

**Keywords:** Mongol state, Genghis Khan's invasion, education, repentance, asceticism, risk, contentment, forgiveness, dhikr, tawajjuh, patience, murakaba, consent

**CHINGIZGA BO'YIN EGMAGAN AHMAD IBN UMAR IBN MUHAMMAD XIVAQIY AL-XORAZMIY***Abdullayeva Saodat Nurilloyevna**Buxoro davlat tibbiyat Instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasasi o'qituvchisi,  
Buxoro, O'zbekiston*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Najmuddin Kubro nomi bilan mashhur bo'lgan Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiyning hayot yo'li, to'g'riroq'i bolaligidan to umrining so'ngiga qadar boshidan o'tkazgan kunlari haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tilgan. Shuningdek, maqolada Najmuddin Kubroga berilgan taxallus yoki laqablar haqida, uning bunday komil inson bo'lib yetishishida xizmat qilgan ustozlari hamda u tomonidan ta'lim berilgan shogirdlari haqidagi muhim so'zlar ham mavjud.

**Kalit so'zlar:** mo'g'ullar davlati, Chingizzon bosqini, ta'lim, tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, mulozamatuz zikr, tawajjuh, sabr, muroqaba, rizo

**АХМАД ИБН УМАР ИБН МУХАММАД ХИВАКИ АЛЬ-ХОРЕЗМИ, НЕ ПОДЧИНЯВШИЙСЯ ЧИНГИЗУ***Абдуллаева Саодат Нуриллоевна,**преподаватель социальных наук, Бухарский государственный  
медицинский институт, Бухара, Узбекистан*

**Аннотация.** В этой статье дается краткий отчет о жизни Ахмада ибн Умара ибн Мухаммада Хиваки аль-Хорезми, более известного как Наджмиддин Кубро, или, точнее, с детства до конца его жизни ». В статье также содержатся важные замечания о прозвищах или прозвищах, данных Наджмиддину Кубро, его учителям, которые помогли ему вырасти в такого совершенного человека, и ученикам, которых он обучал.

**Ключевые слова:** монгольское государство, нашествие Чингисхана,



*образование, покаяние, аскетизм, риск, удовлетворенность, прощение, зикр, таваджух, терпение, муракаба, согласие.*

KIRISH. Mavzu sarlavhasidagi Chingizzonni deyarli har bir mакtab o'quvchisidan tortib yoshi katta ulug'larimizgacha taniydi, ammo sarlavhaning davomida nomi kelgan shaxs haqida bunday fikr bildirish mushkul. Barchaga Najmuddin Kubro nomi bilan mashhur bo'lган ajdodimizning asl ismi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiy bo'lганligidan ko'pchilikning xabari yo'q. Ushbu maqolada musulmon olamidagi eng zabardast mutasavvuf donishmandlardan biri sanalgan vatandoshimizning nafaqat hayot yo'liga balki ilmiy merosiga ham ko'z tashlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Mavzu yuzasidan yaratilgan adabiyotlarga to'xtalib o'tsak, ushbu mavzuga oid ma'lumotlarni o'rta asrlar, sovet davri va mustaqillik davridagi asarlar singari bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Ilk guruhga Najmuddin Kubro zamonidagi tarixchilarining , Abu Umar Minxojiddin Usmon ibn Sirojiddin Juzjoniy , Ali Akbar Dehudoning asarini kiritish mumkin. Shayx haqida nafaqat o'z davri olimlari, balki Sovet hokimiyati va undan keying davrida rus olilari ham o'rganishgan. Bular sirasiga A.Shimmel ,Yevgeni Bertels ,M.Yu.Roshin, Yu.Osipov,S.Demidov , G.Snesarov asarlarini kiritish o'rinni hisoblanadi.

Mustaqillik yillarda Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiy to'g'risida bir qator ilmiy asarlar yaratildi va anchagina maqolalar yozildi. Ular orasida Xurshid Davron , N.Komilov tomonidan yaratilgan asarlar salmoqli o'rinn egallaydi.

Tadqiqot metodlariga analiz va sintez, retrospektiv tahlil, hujjatlar tahlili kiradi.

Natijalar. Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiy (keying o'rnlarda Najmuddin Kubro deb yuritiladi) hijriy 540 (milodiy 1145) yilda Xorazmning Xiva shahrida tavallud topadi. Otasi Umar va onasu Bibi Hojar farzandlari har sohada yetuk komil inson bo'lib ulg'ayishi uchun qo'llaridan kelgancha harakat qilishgan. Yoshligidan undagi ilmga bo'lган qiziqish va mehr-muhabbatni ko'rgan ota-onasi Ahmadni ilm o'rganish uchun turli yurtlarga yuboradilar. 16—17 yoshlarida tahsilni chuqurlashtirish maqsadida Xorazmdan chiqib, Eron, Misr, Shom-u Iroq mamlakatlarini kezadi. Abdurahmon Jomiy o'zining "Nafahot ul-uns" asarida yozishicha, Najmuddin bolalik paytidayoq ilm istab Misrga ravona bo'ladi. Misrda Ruzbehon Vazzon al-Misriy degan olim dargohida ta'lim oladi. U yerda islom asoslari shariat ilmlarini juda tez o'zlashtirib o'zidagi qobiliyati asosida Xorazmning mana- man degan ulamolaridan o'zib ketadi va ilmiy bahslarda barchani olqishiga sazovor bo'ladi. Shu bois keyinchalik u "Tammatul Kubaro", yani ulamolarning yetugi va ulug'vori degan laqabni oladi. Buning yoniga "Najmuddin" – "dinning yulduzi" degan martabali unvon qo'shilib, Ahmad ibn Umar shundan keyin Najmuddin Kubro nomi bilan mashhur bo'ladi deyiladi Jomiyning asarida. Najmuddin Kubroning Misrdagi ustoz Al-Misriy o'z navbatida, o'sha davrning mashhur mutasavvuf donishmandi Abu Najib as-Suxravardiyyadan ta'lim olgan edi. Ruzbehon Najmuddin Kubronu o'z o'g'lidek yaxshi ko'rib, alohida mehr bilan

tarbiya qiladi. Uning halolligi va komilligi bois, hatto o’z qizini unga nikohlab berib, o’ziga kuyov qilib oladi.

Ammo ilmga chanqoq Najmuddin Kubro Misrda olgan bilimlaridan kifoyalanmaydi. Ko’p o’tmay Tabrizga borib, u yerdagi Imom Abu Mansur Hafda degan donishmanddan islomiy ilmlarni o’rganadi. U Abumansur Hafdhah huzurida hadis ilmiga bag’ishlangan “Sharhus–sunna” kitobidan saboq oladi. Bir kun muridlar madrasa darsxonasida saboq olib o’tirishganida u erga bir darvesh kirib keladi. Shunda Najmuddinda kitob o’qish majoli qolmaydi va darveshga ko’zi tushishi bilan qalbida mehrli bir o’zgarish yuz beradi. Darvesh chiqib ketganidan keyin Najmuddin saboqdoshlaridan: - “Bu odam kim ?” deb so’raydi. Ular “Bu shu yerlik hazrat Bobo Faraj Tabriziydir” deydi. Shu kuni kechasi bilan Najmuddin uxlamay chiqadi va erta tongdanoq ustozni va saboqdoshlariga: - “Yuringlar, Bobo Faraj oldiga boramiz” deydi. Ular boboning xonaqosiga borganlarida, xizmatkor ularni kelganligini darveshga aytadi. Bobo Faraj xizmatkoriga: “Agar ular Tangri Taolo dargohiga kelganday bo’lib kira olsalar, kirsinlar” deydi. Shunda Najmuddin darrov kiyimlarini yechadi, hamxonalari ham unga ergashadilar. Ular Bobo Faraj huzuriga kelib indamay bir chekkada o’tiradilar. Bobo Farajning tanasi quyosh parchasiday porlab uning yirtiq to’nini yoriqlaridan nur tarala boshlaydi. Birozdan so’ng Bobo Faraj o’rnidan turib to’nini yechib Najmuddinning ustiga yopadi, Najmuddin uchun bu yirtiq to’n tabarruk tuhfa edi. So’ngra Bobo Faraj Najmuddinga qarab, “Sening daftaru kitob o’qish vaqting o’tdi, balki o’zing endi butun olam sardaftari bo’ladigan vaqt yetdi” deydi.

Bobo Farajning xonaqasidan chiqqanlaridan so’ng Najmuddinga ustozni “Sharhus–sunna” kitobidan ozgina qoldi, bir-ikki kun shug’ullansang tugatasan, keyin qayerga borsang ixtiyorining deydi. Najmuddin ustozining maslahatiga quloq solib darsxonaga kiradi. Ammo shu zahoti Bobo Faraj kelib unga tanbeh beradi. “Hozirgina ilmul yaqindin ming farsax uzoqlashgan eding, endi yana ilm qoshiga keldingmi?”-deydi. Shundan so’ng Najmuddin o’qishini yig’ishtirib riyoza bilan mashg’ul bo’ladi. Tabrizda Ammor Yasir, Ismoil Kasriy kabi ulkan mutasavvuf donishmandlardan tasavvufga oid ko’pgina zohiriylari, botiniy ilmlarni ham egallaydi. U kishi shayx Ismoil Kasriy qo’lida tasavvufiy xirqapush darajasiga yetib, ul hazratning oq fotihasini oladi.

Abdurahmon Jomiy hazratlari o’zlarining “Nafahot ul-uns” asarida yozishlaricha “Najmuddin Kubro Iskandariya shahrida muhaddis ulamolardan hadis ilmini o’rganib qaytayotganida, yo’lda bir kecha hazrati Payg’ambarimizni tushida ko’radi va ul zotga murojaat qilib, “menga kuniyat bag’ishlang” deydi. Shunda hazrati Payg’ambar Najmuddinga: - “Sening kuniyatning Abuljannob – dunyodan ijtinob, parhez etuvchi bo’ladi”, deb marhamat qiladilar. Shundan keyin Kubro “Jannob” laqabini olishga musharraf bo’ladi. “Jannob – ijtinob qiluvchi, poklik parheziga amal etguvchi ma’nosidadir”. Bundan kelib chiqadiki, “Abuljannob” so’zi ham Najmuddin Kubroning nomlaridan biridir.

Ali Akbar Dehxudoning mashhur “Lug’atnoma”sida keltirilishicha, “u kishining Kubro deb atalishlariga sabab shuki, behad ziyrakliklari va tunganmas zakovatlari tufayli har kanday muammoli masalani so’ralganda hal qilib berar edilar va har kim u kishi bilan bahs-munozara qilsa, g’olib chiqar edilar”.



25 yildan ortiq umrini ilm tahsiliga bag‘ishlagan Najmiddin Kubro 1185-yil Misrdagi ustozi va qaynatasi Ruzbehon maslahati bilan o‘z vatani Xorazmga qaytib keladi. Bu yerda katta xonaqoh qurdirib, o‘z diniy maktabini yaratadi. U kishilarni ezgulikka, ilmga, saxovat va mardlikka da’vat etdi. Uning tarbiyasini olgan yuzlab odamlar irfoniy ma’rifatdan bahramand bo‘ldilar.

Najmiddin Kubro “Kubraviya” yoki “Zahobiya” tariqatiga asos soladi. Kubroviya tariqati Sharq va G’arbdagi juda ko’plab mamlakatlarga tarqalgan. Erkin Yusupovning xulosasiga qaraganda, buning natijasida Firdavsiya tariqati, Nuriya tariqati, Rukniya tariqati, Hamadoniya tariqati, Nurbaxshiya tariqati, Nematulloiya tariqati singari yo’nalishlar yuzaga kelgan. Bu tariqat ta’limoti hadis va shariatga asoslangan bo‘lib, o‘z davrida Xuroson, Movarounnahr, Hindiston va boshqa musulmon mamlakatlari xalqlari orasida keng tarqaladi. Mazkur tariqat soliklari orasida zikrni ovoz chiqarmasdan (xufiya) ijro qilish usuli joriy bo‘lgan.

Shayxning ilmiy merosi sirasiga bir qancha asarlar qatori atoqli sharqshunos Ye.E.Bertels tomonidan yozilgan «Tasavvuf va tasavvuf adabiyoti» kitobidagi Kubro qalamiga mansubligi taxmin qilingan 25 ta ruboysi ham kiritish mumkin. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Najmiddin Kubro asos solgan kubroviya tariqati «oltin tariqat» deb ham atalgan. Najmiddin Kubroning o’zi «Risolatut - turuk» asarida uni «Tariqush shutto» (ishq ahli beboshliklarining yo’li) deb ham ataganligi ma’lum. Bu risolada «kubroviya» tariqatining o’nta usuli qisqacha zikr etilgan.

Uning aqidasiga ko‘ra, inson o‘z mohiyati e’tibori bilan mikrokosm, ya’ni kichik olamni tashkil etadiki, u makrokosm, ya’ni katta dunyo bo‘lgan koinotdagi barcha narsalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ammo ilohiy sifatlar yuqori samoviy doiralarda birin-ketin o‘ziga xos maqomlarda joylashganligidan, haqiqat yo‘lini qidiruvchilar bunday yuksakliklarga ko‘tarilib, ilohiy sifatlarga ega bo‘lishi uchun, ya’ni kamolatlarga erishishi uchun, ma’lum riyozatli yo‘llarni o‘tishlari zarur. Buning uchun esa, har bir kishi o‘n asosga tayanmog‘i kerak: tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, mulozamatuz zikr (doim Allohning zikrida bo‘lish), tavajjuh (butun vujudi bilan Allohga yuzlanish), sabr, muroqaba va rizodir.

1. Tavba - o‘z xohishi bilan Haq taologa hech bir ko’rsatmasiz yuzlanishdir. Kishi o‘z irodasi bilan Xudoni sevishi va o‘zining “meni” dan kechishi kerak. Tavba Xudo tomon yuz tutgan barcha kishilarning har qanday gunohlardan forig’ bo‘lishidir. Gunoh shunday narsadirki, u dunyoviy yoki ilohiy bosqichlardan tashkil topganiga qaramasdan Alloh taolodan yiroqlashtiradigan amaldir.

2. Zuhd fi-dunyo - bu dunyoda ham, uning tashqarisida ham, nimaiki lazzat tomon boshlasa, undan tiyilishdir. Oz yoki ko‘p bo‘lsa ham, biror molu mulkka, jangga yoki bo‘lmasa biror mansabga o‘z tabiiy vafotigacha rag’bat yoki moyillik ko’rsatish, zuhddan chiqish hisoblanadi.

Zuhdning mohiyati dunyo va oxiratga rag’bat qo‘yishdan voz kechishdir. Ichky lazzat, sharob ichish, nikohiy ishlarga ruju qo‘yish, mansab va oliy martabalarni qo‘msash kabi rohatlarga o‘xshash his-tuyg’ulardan voz kechishdir. Yillar davomida xayrli ishlar bilan band bo‘lib, yer ishlari bilan shug’ullanish va shunga o‘xshash boshqa faoliyat ta’sirida dunyoviy narsalardan ko‘ra, oxiratga

ко'проq tamoy-il va ragat'bat ko'qrs Chunki dunyo foniy bo'lib, oxirat boqiyidir.

3. Tavakkal - Xudoga ishonch jihatidan bu turmushdagi barcha ikir-chikirlardan voz kechishdir. Shaxsning dunyoga rag'bat qo'yishi molu dunyo va mansab orttirish uchun tashabbus ko'rsatishga sabab bo'ladi. Tavakkal dildan Xudoga ishonish bo'lib, uning ulug'vorligini e'tirof etishdir. Maqsadga erishish mahalida tavakkal birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

4. Qanoat - hayot kechirishni ta'minlaydigan oz narsa bilangina qanoatlanish, o'z tarafiga tortadigan barcha nozu-ne'matlardan va hirslardan (ovqatni ko'p iste'mol qilish, qimmatbaho kiyimlar kiyimlarga kiyimlarga havas qo'yish-yishan

5. Uzlat - tanholiqda o'tirib, ruhni mustahkamlash, odamlar bilan muomalani to'xtatish: gaplashmaslik, eshitmaslik, qaramaslik va turli fe'l-atvordan aloqani uzishdir. Uzlatning asl maqsadi xilvatda ado qilinganligi sababli his-tuyg'uni jilovlashdir. Xil-vat va uzlatga ketish hissiyotlarning bosilishiga olib keladi.

6. Mulozamat az-zikr (uzluksiz zikr) - o'z xohishicha Xudoning ismini fikrida yod qilib turish va bugun qalbni u bilan to'ldirish. Shunday qilinganda, pastkashlik, hasad, ochko'zlik, ikkiyuzlamachilik kabi razillik va riyokorliklar ko'ngilga yo'l topa olmaydi.

7. Tavajjuh - butun ichki mohiyatni Xudoga qaratish, unga cheksiz muhabbat qo'yish, undan boshqa narsa borligini his etmaslikdir. Uz vujudini yo'qotish, Haqning abadiy va azaliy vujudini boshqa bilim ila ko'ra bilishdir.

8. Sabr - o'z ixtiyori bilan nafs doirasidan mashaqqatlar chekib bo'lsa ham, o'zini olib qochishdir. Maqbul bo'lgan to'g'ri yo'ldan adashmasdan borish uchun, kishi o'z mayllarini so'ndirishi lozim. Bundan ko'zlangan maqsad shundaki, dil kuduratlardan poklanishi, ruh esa, agar nafs natijasida zanglanib qolgan bo'lsa, jilo topishi zarurdir.

9. Muroqaba (tafakkurga g'arq bo'lish) - erishilgan darajada mushohada yuritish, qalbni arzimas his-tuyg'ulardan xoli qilib, tozalash va xotirjamlikka erishish. Kurash, riyozat chekish yo'li bilan hosil qilingan yo'l haqqoniy tuhfa etilgan tabiiy amal bo'lib, yaratilish haqiqatining g'alabasi sifatida paydo bo'ladi va shuning uchun ham rivojlanib boradi.

10. Rizo - shaxsning nafs erkinligidan chiqib, Xudo xushnudligiga kiripsh va azaddan nimaga ishongan bo'lsa, o'shani o'z bo'yniga olishidir. O'z irodasini toabad qoladigan narsaga voqelik sifatida qaytarib, o'limga o'xshash o'ginkchi narsaga e'tiroz bildirishidir.

O'n usuldan chiqariladigan natija shundaki, o'lmaydigan shaxsning yodi uning nafsi mag'lubiyatga uchratgan sifatlarida yashaydi.

Har qanday davlat ezbilik tarafdori bo'lib rivojlansa, miskinlar ko'z yoshini oqizmasa ham ichki va tashqi dushmanlar hujumi tufayli inqirozga yuz tutadi – degan edi Najmiddin Kubro. Darhaqiqat, o'zaro urushlar oqibatida, Xorazmshohning onasi Turkon xotunning, davlat uchun xizmat qilgan kishilarni kamsitib faqat qipchoqlardan chiqqan amaldorlarni ko'klarga ko'tarishi va bir qancha sabab oqibatlar natijasida qudratli saltanat inqirozga yuz tuta boshlagan edi. Chingizxon bilan Muhammad Xorazmshoh o'rtasida qisqa muddat (1215-1218) elchilik munosabatlari davom etgan bo'lishiga qaramay bu munosabatlar oxir-oqibat fojiali tugaydi.

Harbiy jihatdan puxta tayyorgarlik ko'rgan mo'g'ul qo'shinlari Xorazmshohlar davlatiga yurish qilib qisqa muddatda bu davlat hududini bosib oladi. Mo'g'ullar qurgan tuzoqlarga bir necha marta tushib, o'z harbiy kuchlarining (O'trorda 60 ming, Xo'janda 10 ming, Samarqandda 110 ming, Buxoroda 50 ming) anchagini qismidan ajralgan Xorazmshoh Muhammad o'z yurtini, poytaxti Gurganch shahrini tashlab ketadi. Shahar aholisi, himoyasiz, yetakchilik qiladigan sardorsiz qoladi. Shunday og'ir vaziyatda 76 yoshli Najmuddin Kubro shaharni himoya qilishni o'z zimmasiga oladi. Shayx muridlarini jamlab, ularga qarab bunday deydi: "Mashriqdan kelgan bu balo Mashriqu- Mag'ribni yakson etadi, yondirib kul qiladi. Sizlar har biringiz o'z yurtingizga boring, o'z joningizni asrash payida bo'ling". Muridlar shayxga iltimos qilib dedilar: – "Ot–ulovlar tayyor, agar shayx biz bilan hamroh ketishni ixtiyor etsalar, yaxshi bo'lardi". Bunga javoban shayx Najmuddin Kubro deydi: – "Men bu yerda shahid bo'laman, menga Xorazmni tark etishga ruxsat yo'q" deydi.

Shayx shahar mudofaasini tashkil etish bilangina cheklanmay, qo'liga qilich olib jang qiladi. Chingizzon shayx Najmuddin Kubroning mashhurliklarini eshitgan bo'lganligidan Xorazmga hujum qilish oldidan, u kishiga chopar yuborib, "Men Xorazmni qatlom qilmoqchiman, shuning uchun sizdek ulug'vor shaxsni u yerdan ketib, bizga qo'shilishingizni so'rayman", degan. Ammo shayx unga javoban: "Men yetmish yil umrim davomida xorazmliklar bilan turmushning achchiq-chuchugini birga tortganman. Endi ular boshiga balo-qazolar yog'ilayotgan paytda qochsam muruvvatdan bo'lmaydi", degan. Ancha vaqtgacha mo'g'ullar shahar himoyachilarining qarshiligini yenga olmaydilar. Najmuddin Kubro shahar himoyachilariga qarata iltijo bilan "Yo Vatan, yo sharaflı o'lim!" deb xitob qiladi. Mo'g'ullar hali biron yerda bunchalik qattiq qarshilikka duch kelmagan edi, hali biron joyda mo'g'ul askarlari bunchalik ko'p qirg'in qilinmagan edi. Dahshatli qirg'inbarot Gurganch fojiasi etti oy davom etadi. Son jihatdan ustun bo'lgan dushman mashaqqatlar va hisobsiz qurbanlar evaziga g'alabaga erishadi. Qo'lida quroq ushlashga majoli qolmagan gurganchliklar ilojsizlikdan taslim bo'ladi. Jarohatlangan Shayx Najmuddin Kubro o'limi oldidan tug' tutgan mo'g'ul sarboziga tashlanib, bir qo'li bilan uni qatl etayotgan mo'g'ul yalovining uchini ushlab turgan. Oxiri qo'lini qirqib tug'ni olganlar. Gurganch taslim bo'lgach yondiriladi, xamma tirik jon qilichdan o'tkaziladi, boyliklar talanadi. Juvayniyning ma'lumotlariga qaraganda, 100 ming nafar hunarmand, kosib, rassomlar asirga olinib Mo'g'ulistoniga jo'natilgan. Mo'g'ullar vahshiylikning bor usullarini ishga solganlar.

Shunday qilib, Xorazmning buyuk farzandi o'z ona vatanini dushmanlardan himoya qila turib sharaflı o'lim topdi. Najmuddin Kubro 1221 yilda o'zi muallimlik qilgan xonaqohgadafnetiladi. Keyinchalik Oltin O'rda qaboboy sinuvchi o'lka hukmdori Qutlug' Temur tomonidan XIV asrda Urganch shahrida buyuk olim, tasavvuf ta'limotining asoschilaridan biri, vatanparvar Shayx Najmuddin Kubro nomiga maqbara tiklangan. Hijriy 733 (1334) yilda Xorazmga safar qilgan mashhur arab sayyohi ibn Battuga Urganch shahridan chiqa berishdagi zoviyada Najmuddin Kubroning maqbarasi va boshqa ulug'larning mozorini

ko‘rganligini yozadi. Hozirgi vaqtda Najmuddin Kubroning qabri Turkmaniston Respublikasini Toshhovuz viloyati Ko‘hna Urganch shahridadir.

Najmuddin Kubro bir necha ilmiy asarlar va ruboilyar yozganki, ular juda ko‘p tazkiralarda uchraydi. U o‘z qarashlarini arab tilida yozgan bir qator risolalarida bayon qilgan. Ulardan asosiylari “Favoih al-Jamol va favotih al-Jalol”, “al-Usul al-ashara”, “Risolat al-Xoif al-xaim min laumon al-laim” va boshqalardir. Bu asarlar arab mamlakatlari va Turkiyada bosib chiqarilgan. Uning arab tilida yozgan «Risolatun odob ul-zokirin» («Zikr aytuvchilar odobi haqidagi risola») asarining Abdurahmon Jomiyuning shogirdi Abdul G’ofur Loryi tomonidan fors tiliga qilingan tarjimasi bizgacha yetib kelgan va O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida № 503-X raqami ostida saqlanmoqda. Bu asarning asli nomi arabcha “Al-Usul al-ashara” (“o’n usul” yoki “o’n asos”) deb ataladi. Turkiyada ushbu asar turk tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan.

XULOSA. Shunday qilib, Najmuddin Kubro tasavvuf ta’limotining rivoji va butun musulmon Sharqida keng tarqalishida katta rol o‘ynadi. Uning nomi islom olamida mashhur bo‘ldi. Najmuddin Kubro kishilarni ezgulikka, ilmga, saxovat va mardlikka da’vat etdi. Bu yo‘lda o‘zi boshqalarga o‘rnak bo‘ldi. Buyuk bobolarimizning hayot yo‘li biz avlodlar uchun go‘zal o‘rnakdir. Mustaqilligimiz sharofati tufayli 1995 yilda Respublikamizda buyuk alloma Najmuddin Kubroning 850 yilligi keng nishonlandi va bir qancha risolalari chop qilindi.

Adabiyotlar ro’yhati / References:

1. Ali Akbar Dehhudo.(1965) Lug‘atnoma. 104-jild. Tehron universiteti nashri.
2. Mavlono Jaloliddin Rumiy.(1982) Masnaviye ma’naviy: Muqaddima. Kobul.
3. Xurshid Davron.(1998) Shahidlar shohi yohud Shayx Kubro tushlari. Tarixiy-ma’rifiy qissa.I nashri: Toshkent: «Yangi asr avlodni»
4. Бертельс Е.Э.(1965) Шейх Наджм-дина Кубра // Izbrannie Труды. Суфизм и суфийская литература. – Москва.
5. Ибрагимов Н. (1988) Ибн Баттута и его путешествия по Средней Азии. – Москва: «Наука»